

Xotin-qizlar haftaligiga start berildi.



Xotin-qizlar haftaligiga start berildi.

Bugungi kunda har qanday jamiyatning asosiy "ko'zgusi" – xotin-qizlar ekanligi shubhasizdir. Chunki jamiyatning ijtimoiy tuzumi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, o'sha jamiyat aholisi turmushining farovonlik darajasi, oilalar barqarorligi, kelajak avlod – farzandlar tarbiyasi, iqtidori, jamiyatdagi intellektual salohiyat, ma'naviyat va madaniyat, ma'rifat, qo'yingki, barcha jabhalarda erishilgan yutuqlar shu jamiyat taraqqiyotiga xotin-qizlarning qo'shadigan hissasi va o'sha jamiyatning ayollarga munosabati bilan belgilanadi. Vazirlar Mahkamasining "Xotin-qizlarni e'zozlash haftaligi"ga tayyorgarlik ko'rish va uni yuqori saviyada o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2022-yil 19-fevraldagi 10-son majlisi bayoni ijrosini ta'minlash maqsadida Termiz shahrida ayollar haftaligiga start berildi.

"Xotin-qizlarni e'zozlash haftaligi"ga "Sog'lom ayol - sog'lom jamiyat" shiori ostida o'tkazilayotgan haftalikda barcha xotin-qizlarni yurish marafonida faol qatnashishdi.

